

ONA TILI DARSLARIDA LEKSIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN INSHO TEXNOLOGIYASI

Ahmadjonova N.

Andijon davlat pedagogika instituti

Kirish. So‘nggi yillarda ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim modeli ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Xususan, ona tili ta‘limida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, og‘zaki hamda yozma nutq madaniyatini takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlari va ona tili faniga oid o‘quv dasturlarida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish ta‘lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur kompetensiya tarkibida leksik kompetensiya alohida o‘rin tutib, o‘quvchining lug‘at boyligi, so‘zlarning ma‘no nozikliklarini anglash, ulardan nutq jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish, uslubiy jihatdan to‘g‘ri tanlay olish hamda fikrni aniq va ta‘sirchan ifodalash qobiliyatlarini qamrab oladi. Leksik kompetensiyaning yetarli darajada shakllanganligi o‘quvchining yozma va og‘zaki nutqi sifatini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Ona tili darslarida yozma nutqni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida insho alohida ahamiyatga ega. Insho yozish jarayoni o‘quvchidan mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritish, voqea-hodisalarga shaxsiy munosabat bildirish, til birliklaridan maqsadli foydalanish hamda fikrlarni mantiqiy izchillikda bayon etishni talab qiladi. Shu jihatdan insho o‘quvchilarning leksik imkoniyatlarini namoyon etish va rivojlantirish uchun qulay pedagogik maydon hisoblanadi. Biroq maktab amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, insho yozishga tayyorlash jarayonida o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodik ishlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ko‘pincha e‘tibor matn tuzilishi, reja asosida bayon qilish yoki grammatik me‘yorlarga rioya etishga qaratilib, lug‘at ustida ishlash, sinonimik qatorlardan foydalanish, so‘z tanlash madaniyatini shakllantirish, uslubiy rang-baranglikni ta‘minlash kabi masalalar ikkinchi darajali vazifa sifatida qaralmoqda. Natijada o‘quvchilar yozma ishlarida bir xil leksik birliklarni takror qo‘llash, fikrni ifodalashda so‘z tanlashda qiynalish, matnning uslubiy yaxlitligi va ta‘sirchanligini ta‘minlay olmaslik kabi kamchiliklarga yo‘l qo‘ymoqdalar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘zbek tilshunosligi va metodika fanida o‘quvchilarning lug‘at boyligini rivojlantirish, tanqiy faoliyatni takomillashtirish hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Jumladan, A.G‘ulomov, M.Qodirov, B.To‘xliyev, H.Ne‘matov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov kabi olimlarning ilmiy qarashlarida til ta‘limida leksik birliklar ustida ishlash o‘quvchi nutqining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e‘tirof etiladi. N.Mahmudov nutq madaniyatining markaziy komponenti sifatida so‘z tanlash mahorati va lug‘at boyligini ko‘rsatib, til birliklarini o‘rinli qo‘llash shaxsning kommunikativ kompetensiyasini belgilovchi muhim indikator ekanligini ta‘kidlaydi [1].

H. Ne‘matov va hamkorlarining ona tili ta‘limini modernizatsiya qilishga oid tadqiqotlarida o‘quvchilarda leksik-semantik munosabatlarni shakllantirish, so‘z ma‘nolarini tizimli o‘rgatish hamda kontekstual qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodik jihatdan asoslangan muhim yo‘nalish sifatida baholanadi [2]. Bu yondashuv o‘quvchilarning sinonimiya, antonimiya, polisemiya o‘g‘iriga oid bilimlarini faollashtirish orqali ularning yozma nutqida uslubiy aniqlik va ifoda rang-barangligini ta‘minlashga xizmat qiladi. B. To‘xliyevning ilmiy ishlari esa badiiy matnlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarda estetik did, til sezgirligi va leksik tanlash madaniyatini rivojlantirish muhimligini asoslaydi [4]. Shu jihatdan badiiy va publitsistik matnlar asosida leksik tahlil o‘tkazish o‘quvchilarda faol lug‘at va passiv lug‘at o‘rtasidagi farqni anglash, so‘zning uslubiy vazifasini tushunish imkonini kengaytiradi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ham yozma nutq va lug‘at boyligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik keng yoritilgan. Graham va Perin tomonidan amalga oshirilgan meta-tahliliy tadqiqotlarda yozma nutqni rivojlantirish jarayonida tizimli leksik ishlar (vocabulary instruction) integratsiyasi o‘quvchilarning yozish sifati va matnning kommunikativ samaradorligini sezilarli darajada oshirishi isbotlangan [3]. Shuningdek, L. Nation, S. Webb kabi olimlarning tadqiqotlarida so‘z boyligini kengaytirishning eng samarali yo‘li sifatida kontekstual o‘qish, takroriy qo‘llash va faol ishlab chiqarish (productive use) jarayonlari alohida ta‘kidlanadi. Mazkur nazariy qarashlar asosida ona tili darslarida insho yozish jarayonida leksik kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik model ishlab chiqildi. Ushbu model kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib, o‘quvchilarning kognitiv, lingvistik va kommunikativ faoliyatini integratsiyalashgan holda tashkil etishni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil va sintez - ilmiy adabiyotlar, davlat ta‘lim standartlari va metodik qo‘llanmalar tahlil qilindi;

Kuzatish metodi - ona tili darslarida o‘quvchilarning insho yozish jarayoni o‘rganildi;

Qiyosiy tahlil - an‘anaviy va kompetensiyaviy yondashuv asosidagi ta‘lim natijalari solishtirildi;

Pedagogik tajriba-sinov - ishlab chiqilgan metodik modelning samaradorligi amaliyotda tekshirildi;

Statistik tahlil - o‘quvchilarning yozma ishlaridagi leksik birliklar soni, takrorlanish darajasi va uslubiy xilma-xillik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Metodik modelning bosqichlari. Tadqiqot natijasida insho yozish jarayonida leksik kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan to‘rt bosqichli metodik model taklif etildi.

1-bosqich: Leksik tayyorgarlik. Ushbu bosqichda mavzuga oid tematik lug‘at bazasi shakllantiriladi, sinonimik qatorlar aniqlanadi, antonimik juftliklar va uyadosh so‘zlar tizimlashtiriladi. Shuningdek, frazeologik birliklar va tasviriy

ifoda vositalari tanlanadi. Bu jarayon o'quvchining faol lug'atini kengaytirib, yozma nutq uchun zarur leksik zaxirani shakllantiradi.

2-bosqich: Namuna matnlarni lingvistik tahlil qilish. O'quvchilar turli uslubdagi matnlarda leksik birliklarning qo'llanishini tahlil qiladilar. Bunda sinonimlarning stilistik funksiyasi, so'zlarning kontekstual ma'nosi, muallifning leksik tanlovi hamda frazeologizmlarning matndagi ekspressivligi o'rganiladi. Bu bosqich o'quvchilarda "lingvistik kuzatuvchanlik" va "leksik sezgirlik"ni rivojlantiradi.

3-bosqich: Mustaqil matn yaratish. O'quvchilar insho yozish jarayonida oldingi bosqichlarda o'zlashtirilgan leksik birliklardan foydalanadilar. Izohli va sinonim lug'atlardan foydalanish rag'batlantiriladi. Bu yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish bilan birga, leksik tanlash madaniyatini ham shakllantiradi.

4-bosqich: Refleksiv va korreksion tahlil. O'quvchilar o'z yozma ishlarini qayta ko'rib chiqib, leksik takrorlarni aniqlaydilar, sinonimlar bilan almashtiradilar, matnning uslubiy yaxlitligini baholaydilar. Refleksiya metakognitiv faoliyat sifatida o'quvchining o'z nutqini boshqarish va takomillashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Leksik-stilistik mashqlar tizimi. Metodik modelni samarali amalga oshirish uchun mashqlar tizimi uch darajaga ajratildi:

Reproduktiv mashqlar - tayyor leksik birliklarni mustahkamlash va qayta qo'llash;

Produktiv mashqlar - berilgan mavzu asosida mustaqil gap va matn yaratish;

Kreativ mashqlar - yangi kommunikativ vaziyatlarda leksik birliklardan ijodiy foydalanish. Mazkur tizim ta'limning izchillik, uzluksizlik va murakkablik tamoyillariga asoslanib, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda leksik kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari va nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, insho yozishga tayyorlash jarayonida leksik kompetensiyani maqsadli rivojlantirish o'quvchilarning yozma nutq sifati, kommunikativ faolligi va ijodiy fikrlash darajasining oshishiga xizmat qiladi. Taklif etilgan to'rt bosqichli metodik model leksik tayyorgarlik, matn tahlili, mustaqil yozish va refleksiv baholash jarayonlarini yagona tizimga birlashtirishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur modelni ona tili ta'limi amaliyotiga tatbiq etish o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish, nutq madaniyatini rivojlantirish hamda kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning samarali metodik vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Ona tili ta'limda leksik kompetensiyani rivojlantirish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning yozma va og'zaki nutq sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv hamda nutqiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga sharoit yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, insho yozish jarayonida leksik tayyorgarlik ishlarining tizimli yo'lga qo'yilmasligi o'quvchilarda so'z takrorlari, fikrni aniq ifodalashdagi qiyinchiliklar va lug'at boyligining cheklanganligi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli insho texnologiyasini bosqichma-bosqich tashkil etish, ya'ni leksik tayyorgarlik, matn tahlili, mustaqil yozish va refleksiv tahlil jarayonlarini izchil amalga oshirish pedagogik jihatdan samarali yondashuv hisoblanadi. Shuningdek, ishlab chiqilgan metodik model va mashqlar tizimi o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, sinonim va frazeologik birliklardan o'rinni foydalanish, matnni uslubiy jihatdan boyitish hamda fikrni mantiqiy izchillikda bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Natijada o'quvchilarning yozma nutq sifati va kommunikativ faolligi sezilarli darajada oshadi. Umuman olganda, ona tili darslarida leksik kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan insho texnologiyasini joriy etish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va o'quvchilarning nutqiy madaniyatini yuksaltirishda muhim metodik ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. - Toshkent: O'qituvchi, 2007.
2. Ne'matov H., Abdurazzoqov H., Hamroyev M. Ona tili ta'limi mazmunini yangilashning ilmiy-metodik asoslari. - Toshkent, 2011.
3. Graham S., Perin D. Writing Next: Effective Strategies to Improve Writing of Adolescents in Middle and High Schools. Washington DC: Alliance for Excellent Education, 2007.
4. To'xlijev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
5. Umarova Y. T. Developing students' pragmatic competence through phonetic analysis of fiction texts // Ilmiy xabarnoma. - C. 76.
6. Умарова Я. Т. Место анализа текста в развитии творческого мышления // Педагогические науки. - 2011. № 6 С. 135-137.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarida o'quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan insho texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda leksik kompetensiyaning mazmun-mohiyati, uning o'quvchilarning nutqiy faoliyatidagi o'rni hamda insho yozish jarayonining lug'at boyligini oshirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, so'zlarni o'rinni va maqsadga muvofiq qo'llash, fikrni izchil hamda mantiqiy bayon etish ko'nikmalarini shakllantirishda insho texnologiyasining samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: leksik kompetensiya, ona tili ta'limi, insho texnologiyasi, lug'at boyligi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы технологии сочинения, направленной на развитие лексической компетенции учащихся на уроках родного языка. Анализируются сущность и содержание лексической компетенции, её роль в речевой деятельности учащихся, а также возможности сочинения как эффективного средства обогащения словарного запаса. Обосновывается эффективность технологии сочинения в формировании у учащихся навыков уместного и целесообразного употребления слов, логичного и последовательного выражения мыслей, развития коммуникативных и творческих способностей.

Ключевые слова: лексическая компетенция, обучение родному языку, технология сочинения, словарный запас.

Abstract. This article examines the theoretical and practical foundations of essay-writing technology aimed at developing students' lexical competence in native language classes. The study explores the essence and content of lexical competence, its role in students' speech activities, and the potential of essay writing as an effective means of enriching vocabulary. The effectiveness of essay-

writing technology in fostering the appropriate and purposeful use of words, coherent and logical expression of ideas, and the development of communicative and creative abilities is substantiated.

Key words: lexical competence, native language teaching, essay-writing technology, vocabulary development.
